

MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

Nodirbek Sharofiddinov

Jizzax davlat pedagogika instituti

3-bosqich talabasi

Annotasiya. Mamlakatimizda olib borilayotgan milliy statistikani rivojlantirish yo'llari.

Kalit so'zlar: *statistika, davlat statistika qo'mitasi, ODI, bozor iqtisodiyoti, statistic tizim, statistic kuzatish, mikrofirmalar, kichik korxonalar, kuzatish birligi, kuzatish subyekti*

Аннотация. Пути развития национальной статистики в нашей стране.

Ключевые слова: *статистика, Госкомстат, ODI, рыночная экономика, статистическая система, статистическое наблюдение, микрофирмы, малый бизнес, единица наблюдения, объект наблюдения.*

Annotation. Ways to develop national statistics in our country,

Key words: *statistics, State Statistics Committee, ODI, market economy, statistical system, statistical observation, micro firms, small business, observation unit, subject of observation.*

Ommaviy jarayonlarni statistika jihatidan o'rganish, ya'ni bir turli hodisalar va ularning belgilari orasidagi bog'lanishlarni miqdoriy ifodalab ularning to'plarida namoyon bo'ladigan statistik qonuniyatlarni aniqlash uchun dastlab ular haqida, o'rganilayotgan obyektlar to'g'risida boshlang'ich ma'lumotlar yoki boshqa so'z bilan aytganda xom statistik materiallarni to'plash kerak. Mana shu jarayon statistik kuzatish deb ataladi.

Statistik kuzatish ommaviy hodisalarni, jarayonlarni sinchiklab tekshirish uchun ular haqida boshlang'ich materiallarni to'plashdir. U o'rganilayotgan obyektlarni va ularning unsurlarini hisobga olish bilan bog'liq. Hisob – bu biror predmet miqdorini sanab yoki o'lchab aniqlash, biror kimsa yoki narsa mavjud miqdorini belgilash uchun maxsus hujjatda u haqidagi ma'lumotlarni qayd qilish. Statistik kuzatish

xo'jalik va turmush voqealarining hisobiga asoslanadi. Turli shakldagi korxonalar va ularning uyushmalarida xo'jalik voqealari buxgalteriya va operativ texnika hisoblarida qayd qilinadi. Statistik kuzatish ko'pincha ana shu hisob turlari ma'lumotlariga tayanadi. Shu bilan birga ayrim iqtisodiy, ishlab chiqarish masalalarini o'rganish uchun bevosita kuzatish ham amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan mamlakatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim va statistika tizimini chetlab o'tgani yo'q. Hozirgi paytda Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha ancha ishlar amalga oshirildi, ya'ni «Ta'lim to'g'risida»gi qonun qabul qilindi, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi yaratildi, ta'lim standartlari ishlab chiqildi va h.k. Statistikaning roli kundan-kunga oshib borayotganligini hisobga olgan holda 2002-yil 12-dekabrda «Davlat statistikasi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi, 2002-yil 24-dekabrda Respublika Prezidentining farmoni bilan Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tugatilib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 24-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligini qayta tashkil etish to'g'risida" PF-3183-son Farmoniga muvofiq ta'sis etilgan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti 31.08.2003 yil Farmoniga binoan, 1-yanvar 2004-yildan boshlab kichik tadbirkorlik kategoriyasi uchun quyidagi senz belgilangan:

Mikrofirmalar – o'rtacha yillik xodimlar soni quyidagi chegaradan oshiq bo'lmagan yuridik shaxs:

-ishlab chiqarish tarmoqlarida – 20 kishi;

-xizmat sohasi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida – 10 kishi;

-ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanishda – 5 kishi.

Kichik korxonalar – o'rtacha yillik xodimlar soni mikrofirmalarga belgilangan chegaradan ortiq ammo quyidagi songacha bo'lgan yuridik shaxs:

-yengil va oziq-ovqat, metalga ishlov berish va asbobsizlik, yog'ochga ishlov berish, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati – 100 kishi;

-mashinasizlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlov berish, qurilish va boshqa sanoat ishlab chiqarish sohasida – 50 kishi;

-fan, ilm-fanga xizmat ko'rsatish, transport, aloqa xizmatlar sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab-chiqarish sohalarida – 25 kishi.

Dehqon xo'jaligi – yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va ega bo'lmagan oilaviy kichik tovar xo'jaligi bo'lib, u qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bilan oila a'zolari ishtirokida muddatsiz foydalanish uchun birlashtirilgan tomorqa yerda shug'ullanadi. Fermer xo'jaligi – yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi shaxs bo'lib, fermer xo'jaligi a'zolarining birlashtirilgan faoliyatiga asoslanadi va tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini uzoq muddatga ijaraga berilgan yerda olib boradi.

Kuzatish subyekti - bu o'rganilayotgan hodisalar haqidagi ma'lumotlarni qayd qiluvchi va to'plovchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Kuzatish obyekti bilan bir qatorda uning subyekti mavjud. Kuzatish subyekti deb o'rganilayotgan hodisalar haqidagi ma'lumotlarni qayd qiladigan va to'playdigan yuridik yoki jismoniy shaxslar yuritiladi. Masalan, mikroiqtisodiy statistikada kuzatish subyekti - bu har bir korxonalar, tashkilot, muassasa va uy xo'jaligidir. Ular xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida o'z faoliyatlariga tegishli ma'lumotlarni qayd qiladi. Makroiqtisodiy statistikada esa statistika tashkilotlari kuzatish subyektidir. Maxsus statistik tekshirish va ro'yxatlarda ular boshlang'ich ma'lumotlarni qayd qiladi va to'playdi. Hisobotda esa boshlang'ich ma'lumotlarni qayd qilish va korxonalar miqyosida umumlashtirib taqdim etish bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar shug'ullansa, ularni qabul qilish va umumlashtirish statistika tashkilotlarining vazifasi hisoblanadi. Bu holda xo'jalik yurituvchi subyektlar, ya'ni korxonalar, firmalar, tashkilotlar va muassasalar hisobot birliklari deb ataladi.

Kuzatish birligi - bu kuzatish obyektining mustaqil bo'linmas tarkibiy qismi (birligi) bo'lib, uning muhim belgilari haqida ma'lumotlar olinadi.

Kuzatish birligi deganda, kuzatilayotgan obyektning mustaqil bo'linmas tarkibiy unsuri, birligi tushuniladi. Kuzatish jarayonida uning muhim belgilari haqida ma'lumotlar olinadi. Masalan, sanoat faoliyati tekshirilayotganda har bir korxon va firma, qishloq xo'jaligini o'rganilayotganda har bir shirkat xo'jaligi, dehqon va fermer xo'jaligi kuzatish birligi hisoblanadi.

Ayrim hodisalarni tekshirishda kuzatish birligi bilan birga hisob birligi ham belgilanadi. Masalan, chorva ro'yxatida har bir mol turi haqida, asbob-uskunalar ro'yxatida esa har bir mashina, stanok va boshqa asbob-uskunalar haqida batafsil ma'lumotlar to'planadi. Bu holda xo'jalik, korxon kuzatish birligi bo'lsa, uning qayd qilinadigan har bir belgisi hisob birligidir.

Kuzatish dasturi - bu kuzatish jarayonida ma'lumotlari to'planishi lozim bo'lgan kuzatish va hisob birligining asosiy belgilaridir.

Kuzatish dasturi (programmasi) deb o'rganilayotgan hodisa, obyekt haqida ma'lumot to'planadigan belgilar majmui yuritiladi. Boshqacharoq aytganda, kuzatish dasturi kuzatish jarayonida javoblar olinishi lozim bo'lgan savollar to'plamidan iborat. U qanchalik to'g'ri tuzilsa, tekshirish natijalari shunchalik yaxshi chiqadi.

Davlat statistika qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: Rasmiy statistika sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, rasmiy statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta'minlash. Makro iqtisodiy statistikani, yashirin iqtisodiyotni statistik baholashni, turizm, bandlik, ekologik hisoblar, transport, davlat moliyasi va boshqa tarmoq statistikasini xalqaro andozalarga mos ishlab chiqish, shuningdek, aholini ro'yxatga olish.

Mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan davlat statistikasi to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi, statistika axboroti o'z vaqtida taqdim etilishi, uning to'liqligi va ishonchliligi ustidan qat'iy nazar nazorat olib boriladi.

Xalqaro standartlarga mos keladigan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish;

Davlat organlari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va aholini belgilangan tartibda statistik ma'lumotlar bilan ta'minlash;

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish, statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini ishlab chiqish, joriy etish va ularni yuritish;

Davlat statistikasi tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, foydalanuvchilarning respublikaning rivojlanishini to'liq tavsiflovchi va iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining rivojlanishidagi, shuningdek, aholi turmush darajasidagi sifat o'zgarishlarini yanada to'liq ochib beruvchi ko'rsatkichlarning keng ro'yxatidan erkin foydalanishlarini ta'minlash;

Davlat statistika qo'mitasining hozirgacha va hozirgi kunda erishgan natijalari. Statistika tizimi qanchalik haqqoniy va ochiq bo'lsa islohotlar shunjalik to'g'ri va natijador bo'ladi. Shu maqsadda so'ngi 3 yilda statistika qo'mitasini rivojlantirish maqsadida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan infilatsiyaning hisoblash usuli halqaro standartlarga moslashtirildi. Kuzatuvdagi tovarlar tarkibi kengaytirildi, www.stat.uz ochiq ma'lumotlar partali ishga tushdi. Buning natijasida malakatimiz ODIN ochiq ma'lumotlar reytingida 63 ballni to'pladi. Mazkur ko'rsatkich bilan O'zbekiston ODIN reytingida 125 pozitsiyaga ko'tarilib, dunyoda 44 o'rinni hamda Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egalladi.

O'tgan davrda Davlat statistika qo'mitasi boshqa vazirlik va idoralar, shu jumladan, YEXHTning O'zbekistondagi loyihalari Koordinatori, Jahon banki, BMTning Taraqqiyot dasturi va shu kabi boshqa xorijiy tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlarni rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Ushbu ishlar natijalarini mamlakatimizning ochiq ma'lumotlar bo'yicha xalqaro reytinglar va indekslarda mavqeyining sezilarli darajada yaxshilanishida ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil fevraldagi farmonida 2023-yilda aholini ro'yhatga olishi o'tkazilishi belgilangan edi. Joriy yil 16-marta aholini ro'yhatga olish to'g'risidagi qonun ham qabul qilindi. 2021-yilda

respublikamizning 4 ta hududida ya'ni Andijon viloyatining Xo'jabod tumanida, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida, Xorazm viloyatining Xiva shahri, Toshkent shahrining Yashnaobod tumanida aholini sinov tariqasida ro'yxatga olish o'tkaziladi.

Davlat statistika qo'mitasi faoliyatidagi muammolari erishilgan istiqbollarga qaramasdan, statistika qo'mitasining faoliyatida o'ziga yarasha muammo va qiyinchiliklar ham uchrab kelmoqda. Masalan, pandemiya davrida ayrim statistik ma'lumotlarda chalkashliklar va noto'g'ri ma'lumot berish holatlari ham kuzatildi. Xususan, O'zbekiston aholisining sonini aniqlash va ishlab chiqarish hamda sanoat sohasidagi statistik ma'lumotlar asosan eski turg'un holatdagi ma'lumotlar yuzasidan tuzildi. Statistik ma'lumotlarning yarmi qog'oz shaklida to'plamoqda. Ularni taxlil qilish es 20 yil avvalgi dasturiy ta'minotdan foydaniqmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining 80%, "Oziq- ovqat tashkiloti" ning 64%, "YUNESKO"ning ta'lim bo'yicha milliy statistikasining 48% malumotlarida mamalakatimiz haqidagi ko'rsatkichlar bazasi yetarli emas.

Aholini ro'yxatga olishda ushbu tumandagi maktab o'qituvchilari jalb qilinyotgani.

Davlat statistika qo'mitasiga takliflar.

- Tarmoqqa zamonaviy axborot tendensiyalar va axborot kominikatsiya vositalarini joriy etish;
- Statistika sohasi bo'yicha mutaxasis tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- Mehnat, energetika, ta'lim, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalar bo'yicha mamlakatimiz ko'rsatkichlarini to'liq aks ettir.
- Statisk tarmoqni dasturiy taminotini yangilash.
- Aholini ro'yxatga olishda onlayn platformalarni yaratish

Iqtisodiyotda ma'muriy buyruqbozlik boshqaruvidan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish Statistikada ham tub burilish yasadi. Hozirgi davrda O'zbekistonda iqtisodiyotni xalqaro amaliyotda qabul qilingan hisob va statistikaga o'tkazish hamda mahalliy sharoitlarga uyg'unlashgan milliy hisoblar tizimini ishlab

chiqish va amaliyotga joriy etish, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni xorijiy davlatlar ko'rsatkichlari tizimi bilan taqqoslash va tahlil qilish eng zarur vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/-242850?Ondate=26.06.2012%2000>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida <https://lex.uz/ru/docs/-3332807>
3. O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar partali <https://data.gov.uz/uz/sphere/authority/28>
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi web sayti: <https://stat.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi «Davlat statistikasi to'g'risida»gi qonun. Xalq so'zi, 2002 yil 26 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligini qayta tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni. Xalq so'zi, 2002 yil 26 dekabr.
7. Gosudarstvennaya programma perexoda resupubliki uzbeksitana na prinyatuyu V mejdunarodnoy praktike sistemi uchyota i statistiki. Postanovlenie kmru ot 24.08.1994 g. J.: «Ekonomika i statistika», 1995, №1,2.